

**"ALISHER IBN G'IYOSIDDIN NAVOIYNING ORIFONA G'AZALI
SHARHI: KIM BIROR YONIDIN AYRILDI 36 XUTUT**

Rayhonoy Yangiboyeva
Urganch Davlat Universitetining
adabiyotshunoslik yo'nalishi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari, badiiy san'atlardan foydalanish mahorati, obraz xususiyatlari orifona mavzudagi g'azal tahlili misolida atroflicha ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: ruh, nafs, maxlut, rosux, Kalimulloh, Habibulloh, Bu Jahl, 36 xutut

Аннотация

В данной статье предпринята попытка подробно раскрыть своеобразие поэзии великого поэта-мыслителя Алишера Навои, его умение пользоваться художественными приемами, особенности его образа на примере анализа газели на тему орифон.

Ключевые слова: дух, душа, махлут, росух, Калимулла, Хабибулла, Бу Джахль, 36 хутут.

Annotation

In this article, an attempt is made to reveal in detail the unique features of the great thinker poet Alisher Navoi's poetry, his ability to use artistic arts, and the characteristics of his image on the example of the analysis of a ghazal on the theme of orifona.

Key words: spirit, soul, makhlut, rosukh, Kalimullah, Habibullah, Bu Jahl, 36 hutut

Mumtoz adabiyot namunalari shundan guvohlik beradiki, sharq she'riyatida ishq, irfon, komillik, din va axloq xususidagi qarashlarning bari ikki tushuncha mohiyatini tadqiq etadi. Bu nafs va ruh masalasidir. Nafs va ruh inson zotida birlashgan, bir-birini to'ldirib, ayni chog'da, bir-birini rad etuvchi ikki qarama-qarshi qutbga o'xshaydi. Nafsda ham, ruhda ham cheksiz qudrat yashirin. Ularning mohiyati hech



qachon bir-birisiz ayonlashmaydi. Nafs ruhning mavjudligini dalillasa, ayni chog‘da, ruh ham nafs borligini tasdiqlaydi. Har ikkalasining vazifasi zohiran bir xil bo‘lsa ham, botinan mutlaq farqli. Ayni shu farqlanish asosida, ularning tabiati, xususiyati namoyon bo‘ladi.

Tasavvuf ahli nuqtai nazarida ruh yaratilgan bir javhardir. Faqat u yaratilganlarning eng latifi, javharlarning eng tozasi va eng nurlisidir. G‘ayb olamidagi narsalar u orqali ko‘rinadi va haqiqat ahliga kashf uning soyasida bilinadi. Ruhning ziddi hisoblangan nafs esa, barcha yomonliklarning doyasi hisoblangan. Ruh qancha nurli va yuksak mavjudlik bo‘lsa, nafs shu qadar chirkin va tuban borliq sifatida e’tirof etilgan. Tasavvufda inson fe’lidagi bari illatlar nafsdan, fazilatlar esa ruhdan oziqlanadi, degan qarash ustuvor. Shu bois ham, sayr-u sulukda butun harakatlar nafsni isloh qilish va ruhni kamol toptirishga qaratilgan.

Ulug‘ mutafakkir Navoiy ham mutasavvuflarning bu qarashlariga to‘la qo‘shilgan va o‘zining deyarli barcha asarlarida nafs va ruh tafovutidan so‘z yuritadi. Bu orqali shoir nafs va ruh xususiyatlari, ularning inson taqdiri va qismatidagi o‘rnidan keng bahs etadi Chunonchi, shoirning avvalu oxir nafs va ruh talqinini yaratgan ushbu g‘azal matlasiga e’tibor qilsak:

**Gar fano rasmini qilmoq tilar ersang mazbut,
Nafs ila ruhni zinhorki qilma maxlut.**

Baytning nasriy bayoni:

" Agar o‘tkinchi dunyo havas(rasm)larini [yengmoq](#) istasang, nafsingni ruhingga aralashirmagin". Maqtadagi notanish so‘zlarning izohini keltirish lozim. Mazbut-zabt etilgan, maxlut-aralashgan, deganidir. Mazkur g‘azal "Favoyid ul kibar" devonida 280¹-o‘rinni egallaydi. Oq-qora bo‘yoqlar bilan bezatilgan ko‘shk - 7 ta uydan tarkib topgan, aruzning ramali musammani mahzuf ustunlari bilan qad ko‘targan. Unda arab tiliga oid so‘zlar (masdar) qofiya bo‘lib kelgan. G‘azal boshidan oxirigacha nafs va ruh tushunchalari parallel qo‘llanilib, tazod san‘atini yuzaga keltiradi. Unga talmeh va tanosub san‘atlari ham uyg‘unlashib, sanoye uchligini hosil qiladi.

Sharh: "Bu dunyo moddiyat olamidir, u foni. Oxirat hayoti esa boqiydir. Ruhingni nafs iskanjasidan omon saqlay olsanggina, foni dunyo orzu-havaslarini yengib o‘tolasan". Orifona ruhda bitilgan ushbu g‘azalning birinchi baytidanoq, shoir komillikning eng muhim jihatlariga e’tibor qaratadi. Uningcha, "fano rasmi" – o‘zligini mahv etmoqni istagan odam, avvalo, nafs va ruhni bir-biridan farqlay olishi, ikkalasining bir narsa emasligini anglamog‘i lozim. Zero, Shayx Abu Tolib

¹ Alisher Navoiyning "Favoyid ul kibar" devoni 143-b



al-Makkiy ham o‘zining “Qut ul-qulub²” asarida bu xususda shunday yozgan: “Ruh ham, nafs ham jismdagi mustaqil borliqdir. Ruh xayr – yaxshi ishlar uchun harakatlanadi va bu harakatdan ko‘ngilga bir nur zuhur etadi. Nafs esa, shar’ – yomon ishlar uchun harakat etadi va bundan ko‘ngil zulmatga to‘ladi. Shayton bu zulmatni ko‘rib ko‘ngilga ig‘vo soladi”. Navoiy ham xuddi shunday qarashlarni nazm ipiga tizadi. Ulug‘ shoir ilohiy-ma‘rifiy g‘oyalardan kelib chiqib nafs va ruh xususida mulohaza yuritar ekan:

***"Ruh ul nurdururkim, haq anga bermish avj,
Nafs zulmatqa qolib, qilmish anga poya hubut",-deydi.***

"Ruh shunday bir nurdirki, Haq unga avj bergani sari, nafs zulmatda qolib, uning joyi pastda bo‘ladi". Ruh haq tajalliysidan shunchalik nurafshon bo‘ldiki, nafs qaro butkul qorong‘ulikka burkandi. Bu yerda tazod san‘atining har ikki turi ifodalangan. 1. Nur va zulmat, yorug‘lik va qorong‘ulikni bildirib ma‘noviy tazodni hosil qilsa; 2. Nur tepada, zulmat quyida bo‘lishi bilan matn ichida shartli (kontekstual) antonimni yuzaga keltiradi. Farishtalar nur(ruh)dan, hayvonlar nafsdan iboratdir. Insonda esa nafs va ruh doim yonma-yon turadi. Mo‘min kishilargina nafsidan g‘olib kelib, uni jilovlay oladi. Iymon sustlashgani sayin, nafs yuqoriga ko‘tarilib, uni yemirib boradi. Iymon qancha baland bo‘lsa, nafs shuncha tuban tushadi. Haq jilva qilgan ruhda nafsning holiga voy, u poyadan joy oladi.

***Ruh rahmoni erur, nafs erur shaytoni,
Ikkisin bir-biriga qo‘shmaq emastur mashrut.***

" Ruh Haq dargohidan kelgan yo‘riqlarga bo‘ysunar ekan, nafs shayton buyurgan amallarga ergashadi. Ikkisini bir-biriga bog‘lamoq lozim emasdir". Shaytonning hiylalari shunday ohanraboki, u dunyodagi jami yomon narsalarni go‘zal suratda ko‘rsatibgina qolmay, bu go‘zallikka ergashish asnosida insonga jurmni yo‘ldosh qiladi. Alal-oqibat bu vafoli do‘st uni so‘ngsiz azobga duchor etib, nadomat botqog‘iga otadi. Ruh esa Rahmon rizoligi uchun jidd-u jahd bilan kurashadi, bu yo‘lda jafo tortadi, oxir manzili orzu qilingan rizo vodiysi bo‘ladi. Shunday ekan, bu ikki yo‘l qanday birlashsin?

***Ruhg‘a sheva Kalimullo ishin qilmoq fosh,
Nafs fir‘avnliq asbobini aylab marbut.***

Kalimullo- Alloh bilan so‘zlashgan degan ma‘noni bildiradi. Bu Muso alayhissalomga berilgan nomdir. Tur tog‘ida Alloh unga nido qiladi. „Esla, Robbi unga muqaddas Tuvo vodiysida nido qildi³“. Tur tog‘ida — Tuvo deb atalgan

² Nasiba Bozorova, <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/nafs-ila-ruhni-zinhorki-qilma-maxlut/>

³ Nozi‘ot surasi 16-oyat



muqaddas vodiya Muso alayhissalom boshqalarga nasib etmagan marhamatlarga, jumladan, Haq subhanahu va taolo bilan roz aytishish — bevosita so‘zlashish sharafiga muyassar bo‘lganlar. Oyatda mana shu ulkan hodisa zikr qilinyapti. O‘shanda Alloh taolo Muso alayhissalomga dedi: „Fir‘avnning huzuriga bor, u tug‘yonga ketdi“ (17-oyat). Darhaqiqat, Fir‘avn tush ta‘biridan vahimaga tushib hali tug‘ilmagan go‘daklarning joniga ham qasd qilishni reja etdi. U homilador ayollarning yoniga doya qo‘yar, o‘g‘il ekanligi ma‘lum bo‘lsa, doylar jallodlarga xabar berar, shu tariqa murg‘ak vujud, tug‘ilgan zahotiyoyq yo‘q qilinar edi⁴. Baytning mazmuni: "Ruhning ishi Musoning ilohiy dargohdan kelgan xabarni yetkazuvchi ekanligini tasdiqlamoq, ko‘rsatgan karomatlari haqida taxayyul qilib, Haqqa iymonni mustahkamlash bo‘lsa, nafs Fir‘avnning da‘volarini mahkam tutadi. U Musoni sehrigar dedi. Unga ato etilgan ilohiy mo‘jizalarga inonmadi, qurg‘oqchilik, sel, hasharotlar, qonli irmoqlar⁵ vositasida o‘zining qudratini namoyon etganda ham butkul rad etdi. Bu ibrat olishlari uchun eslatma edi. Muso qavmini yagona Allohga iymon keltirishga buyurganda, "Oliy robbingiz menman", - dedi. Fir‘avn nafsiga ergashdi, mutakabbirlik qildi, zalolatga eltgan illatlari bilan birgalikda Qizil dengizga g‘arq bo‘ldilar. Nafsing seni Fir‘avn yo‘liga yetaklasa, bilginki, u qilgan ishlardan-da qabihroq ishlarga qo‘l urasan, oqibatda xotimang shunday to‘fon bo‘ladi".

***Ruhg‘a daa‘b Habibullo ishi oyini,
Nafs Bujahlliq asbobini aylab mabsut.***

Baytning mazmuni: "Ruh rasuli akram sunnatlariga ergashar ekan, nafs Abu Jahl fitnalariga rag‘bat beradi"

Bu misralarda Navoiy Muso va Fir‘avn obrazlari kontrastini davom ettirib, Habibullo-"Allohning do‘sti" , Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam va Bu Jahl-Abu Jahl haqida so‘z yuritadi. Asl ismi Amr ibn Hishom bo‘lib, Payg‘ambarimiz tomonidan "islom fir‘avni" deb ta‘riflangan Abu Jahl, tom ma‘nodagi jaholat otasi edi. U islom va musulmonlarga qarshi tubanlik va chirkinlikning mislsiz ko‘rinishlari bilan kurashgan. Musulmonlikni qabul qilgan shaxs jamiyatda nufuzli kishi bo‘lsa unga o‘z hurmatini to‘xtatishini aytish bilan, tijoratchi bo‘lsa, faoliyatini kasodga uchratishi bilan tahdid qilar, kuchsiz va kimsasiz kishi bo‘lsa, uni kaltaklab, aziyat yetkazib, bu yo‘ldan qaytarishga urinar edi. Sahoba Ammor ibn Yosir bilan uning ota-onasi va yana bir qancha musulmonlarni Islom dinini qabul qilganlari uchun o‘ta og‘ir qiynoqlarga duchor

⁴ Abu Lahab johiliya davrida qizlarni tiriklay ko‘mish urfini saqlash uchun kurashgan

⁵ Musoga 9 yilda 9 karomat yuborilgan



etgan. Ammorning onasi Sumayyani shahid qiladi. Bu eslanganda ko'zda yosh qatralarini paydo qilib, yuraklarni titratadigan hodisadir.

Yo rab, et bizni habibing sifatig'a rosix,

Ayla Bujahl tariqin ichimizdin masqut.

"Yo Robbim, bizni Abu Jahl illatlaridan soqit qilib, Rasulimiz sifatlarini mahkam tutuvchilardan qilg'il ". Baytda Payg'ambar alayhissalom va Abu Jahl hayot yo'llari muqoyasa qilinib, rosix va masqut so'zlari vositasida birining ahkomini mahkam tutish, ikkinchisi mashg'ul bo'lgan fasod yo'lga yurmaslik da'vati orqali tazod san'atining yana bir ohoriy namunasi yaratilgan. Uy ichiga kirar ekanmiz, unda chuqurroq bir ma'no yashiringaniga guvoh bo'lamiz. Habibing sifatig'a noil qil, emas, balki rosix qil deyilar ekan, bunda Rasululloh sifatlarini o'zida saqlovchilardan qilinishi ko'zda tutilmoqda. Demakki, bu sifatarning ma'lum qismi kimdadir bo'lishi mumkin, ammo uni shu holicha saqlab qolish mushkul bir ishdir. Payg'ambarimiz halim tabiatli zot edilar. Bu sifatdan bir zarra berilgan inson hamma vaziyatda ham shunday lutf ila qololadimi? Yo'q. Unga kimdir biror yomon so'z aytsa, yoinki qo'pol muomala qilsa, darhol u kabi javob qaytarishga oshiqadi, hatto bu borada bellashishga sho'ng'ib ketadi. Uning mezoni nafs o'lchovlari bilan ishlay boshlaydi. Janobimiz esa hatto o'ziga o'lim xanjarini o'qtalanganlarga ham chiroyli xulq-atvorini namoyon qilgan edilar. Shuning uchun ham Navoiy hazratlari Rasululloh hadis va sunnatlariga ergashish va amallarida sobit turishga chaqiradi.

Qil Navoiyni hamul xat bila, yo rab, ozim

Kim, biror yonidin ayrildi o'tuz olti xutut.

Mazkur bayt maqtaning go'zal ko'rinishi, ajib tugallanmadir. Xutut-xatning ko'pligi, ozim-azim qilmoq, bormoq demakdir. Ya'ni, "Navoiy 36⁶ xil xat turiga ishora qilib: "Uni kashf etganlar ham, unda xat bitganlar ham bir-bir sening dargohinga yo'l oldilar. Bu xatlarda bir noqislik bor kabi edi. Navoiyni o'z xating bilan yo'nalguvchi qil",-demoqda. Negaki mazkur xutut yaratilmish tomonidan yaratilgan bo'lib, lirik qahramon endi mukammal bir tortiqqa muhtojlik sezadi."Endi Navoiyni shunday ilohiy bitik bilan siylaginki, shu xat ila yoningga azm qilib, murodig'a yetsin",-deya nido qiladi. Botiniy ma'noda esa, "Xattotlar yozgan yozuvlarning barchasi, undagi ma'ni ham nuqsonlidir, meni bular bilan emas, o'z kaloming bilan azm qilguvchi et. Mukammal xating, Qur'oni karim bilan senga yuz tutishni taqdir aylagil".

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Navoiyning ma'rifiy ruhda yozilgan bu g'azali boshdan oxir insonga butun umr hamsoya bo'luvchi nafs va ruh xossalarini

⁶ Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. Toshkent. "Fan" nashriyoti, 1971. B.23.



tadqiq etadi. Bu asnoda har birini sifatlab, ularga ergashuvchilarning hayotlariga ramziy ishoralar berib o‘tadi. Muso va Fir‘avn. Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam janobimiz va Abu Jahl taqdirlarini o‘quvchiga ibrat bo‘lishi uchun tilga oladi. Bani Odamga rozi bo‘lguvchi va rozi qilguvchi amallar, imon uyg‘oqligi va qalb xotirjamligi hamroh bo‘lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. 4-jild. // To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik, –T. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
2. Abdulaziz Mansurning „Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri“ (Toshkent, 2004)
3. Murodov A. O‘rta Osiyo xattotlik san‘ati tarixidan. Toshkent. “Fan“ nashriyoti, 1971.
4. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2007. 18-bet..
5. Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent.: Movarounnahr –O‘zbekiston
6. 7.Sh.Sirojiddinov. D.Yusupova. O.Davlatov. Navoiyshunoslik. –T.,
7. Nasiba Bozorova, <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/nafs-ila-ruhni-zinhorki-qilma-maxlut/>

